

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE'S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra‘noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Umarov Bexzod Batirovich

Qarshi davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: bekhzod.umarov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada moslashuvchan (Agile) va yashil menejmentning nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tashkilotlarda integratsiyalashgan holda qo‘llanishi tahlil qilindi. Agile yondashuvi – tezkor moslashish va samarali boshqaruvni, yashil menejment esa ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanishni maqsad qilgan. Integratsiya natijasida tashkilotlar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishadi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribalar va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Agile menejment, yashil menejment, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik, innovatsion boshqaruv, O‘zbekiston tajribasi.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы гибкого (Agile) и зелёного менеджмента, а также их взаимосвязь и возможности интеграции в организациях. Agile-метод направлен на быстрое адаптирование и эффективное управление, тогда как зелёный менеджмент ориентирован на экологическую устойчивость и рациональное использование ресурсов. Интеграция этих подходов позволяет достигать устойчивого развития в экономической, социальной и экологической сферах. Также анализируются международный опыт и перспективы применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Agile-менеджмент, зелёный менеджмент, устойчивое развитие, экологическая эффективность, инновационное управление, опыт Узбекистана.

Abstract

This article examines the theoretical foundations of Agile and green management, exploring their interrelation and integrated application in organizations. Agile promotes rapid adaptation and efficient management, while green management focuses on ecological sustainability and rational resource use. Their integration supports sustainable development across economic, social, and environmental dimensions. The article also highlights international experience and the prospects of implementation in the context of Uzbekistan.

Keywords: Agile management, green management, sustainable development, environmental efficiency, innovative governance, Uzbekistan experience.

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiyotda tashkilotlar va kompaniyalar o‘z faoliyatini samarali tashkil etish va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun yangi menejment yondashuvlarini qabul qilishga majbur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar va strategiyalar mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni¹ mamlakatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli reja hisoblanadi. Unga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida modernizatsiya, raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini oshirish maqsad qilingan. Strategiyaning ijrosini monitoring qilish uchun Adliya vazirligi, Hisob palatasi va “Taraqqiyot strategiyasi” markazi mas’ul etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 2-dekabr PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida² respublikada yashil hududlarni barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilishi belgilangan. Bu dasturlarni amalga oshirish uchun tegishli yer maydonlari ajratilib, ekologik ekspertizadan o‘tkazilishi ta’minlanadi. Shuningdek, tender savdolari orqali pudratchi tashkilotlar tanlanib, ularning faoliyatini monitoring qilish va natijalarini jamoatchilikka taqdim etish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-sonli “Ayrim turdagi nafaqalarni tayinlash va to‘lashni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga³ muvofiq, ijtimoiy himoya tizimi takomillashtirildi. Yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moddiy yordamni tayinlash jarayoni avtomatlashtirilib, “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali proaktiv shaklda amalga oshiriladi. Bu orqali davlat xizmatlari ko‘rsatishning shaffofligi va samaradorligi oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga⁴ muvofiq, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar doirasida pedagog xodimlar ish faoliyatining vaqt me’yorlari tasdiqlanib, ta’lim muassasalarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu qarorlar va strategiyalar O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta’minlash, yashil iqtisodiyotga o‘tish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamlardir. “Agile” va yashil menejment yondashuvlarini qo‘llash orqali ushbu strategiyalarni amalga oshirish tashkilotlarga tezkor va samarali qarorlar qabul qilish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 2-dekabr PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-sonli “Ayrim turdagi nafaqalarni tayinlash va to‘lashni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga <https://lex.uz/uz/docs/-6978570>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 3-iyul PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6518515>

resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanishiga yo'naltirilgan bir qator qarorlar va strategiyalar mamlakatning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Bu qarorlar o'zgaruvchan iqtisodiy va ekologik sharoitlarda mamlakatni barqaror rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirishni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Quyida ayrim muhim qarorlar va strategiyalarga to'xtalib o'tamiz:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni¹ mamlakatni uzoq muddatda barqaror rivojlantirishga qaratilgan. Bu strategiya iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni qo'llash va yuqori samaradorlikka erishishni maqsad qilib qo'yadi. Strategiya doirasida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda yangiliklar va innovatsiyalarni joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, Yashil makon umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi hujjatga muvofiq, respublikada yashil hududlarni barpo etish va ko'kalamzorlashtirish uchun manzilli dasturlar ishlab chiqiladi. Bu dasturlar ekologik holatni yaxshilash, yangi yashil maydonlar yaratish va aholi turar-joylarini ekologik jihatdan sog'lomlashtirishga yordam beradi. Ushbu qaror O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishini ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-sonli qarori bilan ijtimoiy yordamni ko'rsatish jarayonlari avtomatlashtiriladi va jamiyatning eng zaif qatlamlari uchun yanada samarali yordam tizimi yaratiladi. Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun proaktiv yordam tizimi joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qaroriga muvofiq, davlat boshqaruvi tizimida islohotlar amalga oshiriladi. Xususan, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarining faoliyatini yaxshilash va samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Raqamlashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha esa raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish va biznes jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo'yicha qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston, ayniqsa, bank tizimi va davlat xizmatlarida raqamlashtirishni kengaytirish va texnologik yangiliklarni amalga oshirishga alohida e'tibor bermoqda. Yuqoridagi qarorlar va strategiyalar O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu qarorlar o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishga yordam berish, innovatsiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali mamlakatning global iqtisodiyotda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ilgari surilgan strategiyalar va qarorlar ushbu maqsadga erishish uchun samarali vositadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Beck, K., Beedle, M., van Bennekum, A., Cockburn, A., Cunningham, W., Fowler, M., ... & Thomas, D. lar – “Manifesto for Agile Software Development” asarda “Agile” metodologiyasining asoslari va uning prinsiplarini belgilaydi. Mualliflar tezkor ishlab chiqarish va mijozlarning talablariga moslashish uchun eng yaxshi amaliyotlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan. Highsmith, J. “Agile Project Management: Creating Innovative Products” asarida esa “Agile” menejmentining biznes va loyihalar boshqaruvidagi yondashuvlarini o'rganadi. Muallif, “Agile” yondashuvi tashkilotlarga innovatsion mahsulotlarni tez yaratish va bozor talablariga moslashish imkonini berishini ta'kidlaydi. Shaykhutdinov, I. A. 2020-yilda “Agile” metodologiyasining ishlab chiqarish sohasida qo'llanilishi degan maqolasida “Agile” menejmentining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, vaqtni qisqartirish va sifatni oshirishda qanday rol o'ynashi haqida ilmiy tahlil olib borgan. U “Agile”ning yuqori samaradorligini, tashkilotlar va kompaniyalarning jadal o'zgaruvchan bozor talablariga javob bera olish qobiliyatini ko'rsatgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy yondashuvi sifatida tizimli va integratsiyalangan tahlil usullari tanlanadi. Bu yondashuv, “Agile” va yashil menejmentning nazariy asoslarini o'rganishda hamda ularning amaliyotdagi o'zaro bog'liqligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Tizimli yondashuv orqali har bir menejment modelining asosiy tamoyillari va ularning o'zaro aloqalari tahlil qilinadi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik va sifatli tahlil usullari qo'llaniladi. Bular orasida ma'lumotlarni tasniflash, trendlarni aniqlash va tasavvurlarni solishtirish kabi usullar mavjud. Bu usullar yordamida tadqiqotchi yondashuvlarning samaradorligini va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qiladi. Ushbu tahlil orqali “Agile” va yashil menejmentni qo'llashning iqtisodiy va ekologik natijalari ko'rsatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida “Agile” va yashil menejment yondashuvlarining o'zaro aloqalari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, “Agile” metodologiyasining o'zgaruvchan va tezkor bozor talablariga moslashish qobiliyati yashil menejmentning barqarorlikka qaratilgan tamoyillari bilan juda yaxshi uyg'unlashadi. Bu integratsiya tashkilotlarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi. “Agile” menejmentining qo'llanilishi orqali tashkilotlar tezda o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beruvchi yashil menejment strategiyalarini joriy qilishlari mumkin. Yashil menejmentning resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarini tezkor ravishda “Agile” metodologiyasi yordamida amalga oshirish mumkin. Bu ikki yondashuvning integratsiyasi yangi texnologiyalarni tez va samarali qo'llashni osonlashtiradi. “Agile” menejmenti tashkilotlarga tezkor o'zgarishlarga

moslashish imkonini beradi. Bu yondashuvning asosiy afzalligi – o‘zgaruvchan sharoitlarda jamoalarni tezda qo‘llab-quvvatlash va yuqori samaradorlikni ta’minlashdir. “Agile”ning asosiy tamoyillari shundan iboratki, jamoalar qisqa muddatlarda kichik bo‘limlarga ajratilgan ishlarni bajaradi, natijalari tezda baholanadi va kerak bo‘lsa, darhol o‘zgartiriladi. Barqaror rivojlanishda bu tamoyillarni qo‘llash orqali quyidagi foydalar ko‘rsatiladi:

Tezkor adaptatsiya – “Agile” yondashuvi yordamida tashkilotlar ekologik va ijtimoiy talablar o‘zgarganida tezda moslashishi mumkin. Misol uchun, yangi ekologik normativlarga javoban ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirish. Resurslardan samarali foydalanish – “Agile” metodologiyasi samarali ishlash va resurslarni tejashni ta’minlaydi. Bu barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki resurslardan yanada samarali foydalanish ekologik barqarorlikni oshiradi.

Innovatsion yondashuv – “Agile” yondashuvi doimiy innovatsiyalarni kiritishga imkon beradi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan yashil texnologiyalarni, tezda amalga oshirish mumkin.

Yuqoridagilarga amaliy misol sifatida qaraydigan bo‘lsak, Spotify kompaniyasining “Agile” yondashuvi o‘zgaruvchan raqamli bozorga tezkor moslashish imkoniyatini yaratdi. Spotify o‘zining tizimli ish usulida jamoalar tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan innovatsion xususiyatlar orqali doimiy ravishda foydalanuvchi ehtiyojlariga javob bera olgan. Shu bilan bir qatorda, yashil menejment ekologik barqarorlikni ta’minlash va resurslardan samarali foydalanishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu yondashuv ekologik zararni kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi va barqaror rivojlanishda yashil menejmentni qo‘llash orqali quyidagi afzalliklar kuzatiladi:

- Ekologik barqarorlik: Yashil menejment tashkilotlarga ekologik barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish.

- Ijtimoiy mas’uliyat: Yashil menejment jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi. Tashkilotlar o‘z faoliyatlarini ekologik va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli tarzda olib borishi kerak.

- Tashkilotlar uchun iqtisodiy foyda: Yashil menejment orqali resurslar va energiya samaradorligini oshirish tashkilotlar uchun uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi. Bu barqaror rivojlanishning iqtisodiy o‘lchovini ta’minlaydi.

Interface Inc., global mato ishlab chiqaruvchi kompaniya, yashil menejmentni qo‘llashda katta muvaffaqiyatga erishdi. Interface energiya va suvni tejashga, chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvni qo‘llash orqali ekologik barqarorlikka katta hissa qo‘shdi. Ular qayta tiklanadigan materiallar va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish orqali atrof-muhitni himoya qilmoqda.

“Agile” va yashil menejmentni birlashtirish tashkilotlarga ekologik barqarorlikni saqlash bilan birga samarali boshqaruvni ta’minlash imkonini beradi. Bu ikki yondashuvning integratsiyasi resurslardan samarali foydalanish va ekologik muammolarga tezkor javob berishga yordam beradi. Integratsiya quyidagi afzalliklarga olib keladi, ya’ni “Agile” yondashuvi orqali tashkilotlar ekologik masalalarga tezda javob berishi mumkin. Misol uchun, o’zgaruvchan bozor sharoitlariga javoban yashil texnologiyalarni tezda qo’llash.

Resurslarni optimallashtirish: Yashil menejmentning resurslarni tejashga qaratilgan tamoyillari “Agile” yondashuvi bilan uyg’unlashadi. Bu esa texnologiyalarni samarali qo’llash va chiqindilarni kamaytirishni ta’minlaydi.

Barqaror innovatsiyalar: Integratsiyalashgan yondashuv tashkilotlarni barqaror innovatsiyalarni yaratishga undaydi. Yashil texnologiyalarni “Agile” metodologiyasi yordamida tezkor tarzda joriy etish imkonini beradi.

Yana bir asosiy jihatga qaraydigan bo’lsak, biznes va tashkilotlar uchun samaradorlik – bu mavjud resurslardan, vaqt va ishchi kuchidan maksimal darajada foydalangan holda yuqori natijalarga erishishdir. Bugungi kunda ko’plab tashkilotlar o’z faoliyatlarini yanada samarali qilish uchun yangi va innovatsion yondashuvlarga murojaat qilmoqda. “Agile” (moslashuvchan) menejment va yashil menejment kabi yondashuvlar samaradorlikni oshirishda muhim rol o’ynaydi. Bu ikki yondashuvni birlashtirish tashkilotlarga nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni saqlash imkoniyatini ham beradi. “Agile” menejmenti, ayniqsa, tezkor qarorlar qabul qilish va o’zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu yondashuv tashkilotlar va jamoalarni kichik bo’limlarga ajratib, ish jarayonlarini qisqartirishga imkon yaratadi. Jamoalar o’zaro faoliyatni tez va samarali tarzda bajarib, natijalarni doimiy ravishda baholab borishadi.

Shunday qilib, “Agile” yondashuvi tashkilotlarning yangi imkoniyatlarga moslashishini osonlashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Yashil menejment esa resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuv tashkilotlar uchun uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltiradi, chunki energiya va tabiiy resurslardan samarali foydalanish xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, yashil menejment ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi va tashkilotlarga ekologik barqarorlikni saqlashda yordam beradi.

Bu ikki yondashuvning integratsiyasi, ya’ni “Agile” va yashil menejmentni birlashtirish, tashkilotlarga resurslardan samarali foydalanishni, texnologiyalarni tez joriy etishni va ekologik ta’sirni kamaytirishni ta’minlaydi. Integratsiyalashgan yondashuvlar orqali tashkilotlar nafaqat yuqori samaradorlikka erishadi, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham mas’uliyatli bo’lishadi. Bunday strategiyalar biznes va tashkilotlarga uzoq muddatda barqaror rivojlanishni ta’minlashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Agile” moslashuvchan menejment va yashil menejmentni integratsiyalash tashkilotlarga nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlash imkonini beradi. “Agile” menejmenti o’zgaruvchan

sharoitlarga tezda moslashish va yuqori samaradorlikni ta'minlash uchun jamoalarni kichik, mustaqil bo'limlarga ajratishga imkon beradi, bu esa resurslarni yanada samarali boshqarishni ta'minlaydi. Yashil menejment esa energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash orqali ekologik barqarorlikni saqlaydi. Integratsiyalashgan yondashuvlar tashkilotlarga tezkor va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu ikki yondashuvning qo'llanilishi tashkilotlar uchun moliyaviy samaradorlikni oshirish, ekologik izlarni kamaytirish va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Agile” va yashil menejmentni joriy qilishni kengaytirish: Tashkilotlar “Agile” va yashil menejmentni birlashtirishga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak. Bu ikki yondashuvni qo'llash orqali tezkor va samarali ish jarayonlari tashkil etilishi, shu bilan birga ekologik barqarorlik saqlanadi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash: Tashkilotlar “Agile” menejmenti yordamida innovatsion texnologiyalarni tezda joriy qilishni davom ettirishlari kerak. Yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llash va chiqindilarni kamaytirish kabi innovatsion yechimlar, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta yordam beradi.

Barqaror rivojlanish siyosatini ishlab chiqish: Tashkilotlar o'zlarining barqaror rivojlanish siyosatini ishlab chiqishlari va unga amal qilishlari zarur. Bu siyosat nafaqat resurslardan samarali foydalanishni, balki ijtimoiy mas'uliyatni oshirishni va ekologik ta'sirni kamaytirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Samarali boshqaruv tizimlarini yaratish: “Agile” va yashil menejmentni birlashtirish samarali boshqaruv tizimlarini yaratishga imkon beradi. Tashkilotlar uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun boshqaruv tizimlarida o'zgarishlar kiritishlari va ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik masalalarni uyg'unlashtirishi lozim.

O'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish: Tashkilotlar bozor sharoitlari va ekologik talablar o'zgarganida tezda moslashish imkonini beruvchi tizimlarni yaratishlari zarur. “Agile” yondashuvi bu jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lib, biznes jarayonlarini tezkor va samarali tarzda sozlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beck, K., Beedle, M., van Bennekum, A., Cockburn, A., Cunningham, W., Fowler, M., ... & Thomas, D. – Manifesto for Agile Software Development.
2. Highsmith, J. – Agile Project Management: Creating Innovative Products.
3. Shaykhutdinov, I. A. (2020). “Agile” metodologiyasi.
4. Ahleroff, S., Xu, X., Lu, Y., Aristizabal, M., Pablo Velásquez, J., Joa, B., & Valencia, Y. (2020). IoT-enabled smart appliances under Industry 4.0: A case study. *Advanced Engineering Informatics*, 43, 101043.
5. Akatkin, Y., & Yasinovskaya, E. (2019). Data-centricity as the key enabler of digital government: Is Russia ready for digital transformation of public sector? *Communications in Computer and Information Science*, 947, 439–454.

6. Cimini, C., Pinto, R., & Cavalieri, S. (2017). The business transformation towards smart manufacturing: A literature overview about reference models and research agenda. IFAC-PapersOnLine, 50, 14952–14957.
7. Colli, M., Madsen, O., Berger, U., Möller, C., Wæhrens, B. V., & Bockholt, M. (2018). Contextualizing the outcome of a maturity assessment for Industry 4.0. IFAC-PapersOnLine, 51, 1347–1352.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022-yil 2-dekabr PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-may 314-sonli “Ayrim turdagi nafaqalarni tayinlash va to‘lashni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga <https://lex.uz/uz/docs/-6978570>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 3-iyul PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6518515>
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**